



UDK:172.4: 316.752.4 (575.1)

Elmurod KARIMOV,
Andijon davlat pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi
E- mail: edik7575@internet.ru

ADU dotsent) Sh.Amirxo 'jayev taqrizi asosida

TYPES AND MANIFESTATIONS OF CYBERBULLYING

Annotation

In this article, a number of factors and favorable conditions that cause the occurrence of cyberbullying, types and manifestations of cyberbullying, types of cyberbullying researched in recent years, reasons for the implementation of cyberbullying are mentioned, and cases were considered. It is also reported that cyberbullying is spreading mainly among young people, and as a result, it leads to tragic consequences.

Key words: Cyberbullying, Internet, trolling, youth, violence, educational system, teaching.

ВИДЫ И ПРОЯВЛЕНИЯ КИБЕРБУЛЛИНГА

Аннотация

В данной статье упомянут ряд факторов и благоприятных условий, вызывающих возникновение кибербуллинга, виды и проявления кибербуллинга, исследованные за последние годы виды кибербуллинга, причины реализации кибербуллинга, а также рассмотрены случаи, что кибербуллинг распространяется преимущественно среди молодежи и, как следствие, приводит к трагическим последствиям.

Ключевые слова: Кибербуллинг, интернет, троллинг, молодежь, насилие.

KIBERBULLING HODISASINING TURLARI VA NAMOYON BO'LISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada kiberbulling hodisasining paydo bo'lishiga sababchi bo'lgan bir qator omillar va qulay shart-sharoitlar, kiberbulling hodisasining turlari va namoyon bo'lishi keltirib o'tilgan bo'lib, kiberbullingning so'nggi yillarda tadqiq etilgan turlari, kiberbullingni amalga oshirilishi sabablari va holatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, kiberbulling asosan yoshlar o'rtasida keng tarqalayotganligi va natijada ayanchli oqibatlariga olib kelayotganligi to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Kiberbulling, internet, trolling, yoshlar, zo'ravonlik.

Kirish. "Kiberbulling" fan uchun yangi atama bo'lib, uning genezisi so'nggi 20 yillik tadqiqotlar bilan bog'liq. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, kiberbulling, asosan, bolalar va o'smirlar orasida sodir bo'lishi kuzatib turiladi. Lekin, kiberbulling kattalar orasida ham amalga oshirilsa, unda u kiberbulling deb atalmaydi, aksincha, kiberbullingning bir turi bo'lgan "kiberxarassment" yoki "kiberstalking" deb ataladi [1]. Buni subyektiv qarash deb qarash mumkin.

Kiberbulling bevosita va bilvosita ko'rinishlarda amalga oshirilishi mumkin. Bevosita ko'rinishdagi kiberbulling agressor tomonidan o'z o'lasiga to'g'ridan-to'g'ri turli xil ma'lumotlar yuborish va uni haqorat qilish orqali amalga oshiriladi.

Bilvosita ko'rinishdagi kiberbullingda esa, agressor o'z tomoniga boshqa shaxslarni ham jalb qiladi. Ya'ni, agressor "o'lja"sining ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntini buzib, yoki o'lasining ismidan foydalangan holda, ijtimoiy tarmoqlarda yangi akkauntni ochadi va uning nomidan yaqinlariga, do'stlariga, qarindoshlariga hamda oila a'zolariga g'ayriijtimoiy tusdagi yolg'on xabar va ma'lumotlarni yuboradi. Bunday usul orqali potensial jabrlanuvchining ruhiy sog'lom ekanligiga shubha uyg'otishga harakat qiladi.

Bilvosita kiberbullingning eng xavfli ko'rinishi – agressor tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda o'lasining nomidan diniy, irqiy, milliy adovat kayfiyatidagi hamda boshqa ko'rinishdagi qonunga xilof ma'lumotlarni joylashtirilishidir. Bunday holatlar jabrlanuvchining psixologik holati uchun juda xavfli bo'lib, uning o'z joniga qasd qilishi (suitsid) bilan tugashi mumkin. Amerikalik tadqiqotchilar R.Kovalskiy, S.Limber va P.Agatstonlarning "Kiberbulling: raqamli asrda

bulling hodisasining namoyon bo'lishi" nomli kitobida virtual olamda kiberbullingning eng ko'p tarqalgan shakllari keltirib o'tilgan [2].

Kiberbullingni eng asosiy va ko'p tarqalgan emotsional shakli fleyming (ing. flaying) deb ataladi. Fleyming ikki va undan ortiq shaxslar o'rtasida bir-birini haqorat qilish jarayonidir. Fleyming ommaviy xarakterga ega bo'lib, bunda internet foydalanuvchilari bir-birlarini ommaviy tarzda ijtimoiy tarmoqlarda haqoratlaydilar. Fleyming, asosan, ikki shaxs o'rtasida boshlanadi va keyinchalik ushbu jarayonga boshqa shaxslar ham qo'shilib boradi. Natijada, ikki shaxs o'rtasidagi mojaroga boshqa shaxslar ham aralashadi, lekin bu mojarolarning oqibati faqat haqoratli so'zlar almashinuvi bilan yakunlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Fleymingga o'xshash bo'lgan kiberbullingning yana bir turi – xarassment (ing. Harassment) bo'lib, zo'ravonlik qilish (ayollarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik), tazyiq o'tkazish, haqorat qilish va kamsitish degan ma'noni anglatadi. Xarassmentning fleymingdan farqi shundaki, xarassmentda bir guruh shaxslar ishtirok etmaydi, aksincha, bu jarayon faqat ikki shaxs o'rtasida sodir bo'ladi. Xarassment aniq bir shaxsga qaratilgan bo'lib, davomiy tarzda takrorlanuvchi so'zlar va xatti-harakatlar orqali shaxsda bezovtalanish, qo'rquv va stress holatlarini uyg'otish bilan ifodalanadi. Xarassmentni "griferlar" deb ataluvchi shaxslar ham amalga oshiradi. Griferlar amalga oshiradigan xarassment asosan onlayn o'yinlarda uchraydi. Xuddi an'anaviy o'yinlarda ham yoshlar o'rtasida ajratib qo'yish holatlari kuzatilishi kabi, onlayn o'yinlarda ham shunday holatlar kuzatiladi. Ya'ni griferlar o'z o'lasini onlayn o'yin guruhlaridan chiqarib yuborish

natijasida uni boshqalardan ajratib qo'yadilar. O'zbekistonda so'ngi yillarda jamoatchilik orasida tegajonlikka nisbatan salbiy fikrlar shakllanmoqda «Menimcha, qiz-ayollarning huquqlarini himoya qiluvchi bunday OAV faoliyati — katta muvaffaqiyat hamda adolatsizlik va seksizmga toqat qilishni istamaydiganlarning so'nggi umididir. Fond ushbu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan bunday ommaviy axborot vositalarini olqishlashi va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashini ta'kidlamochim», [3] — deydi Said Mirziyoyeva.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida» gi qonunning 4- moddasida «ruhiy zo'rvonlik — xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha'nini, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zo'rvonlik shakli, shu jumladan reproduktiv sohada nazorat qilish, tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchida o'z xavfsizligi uchun xavotir uyg'otgan, o'zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog'lig'iga zarar yetkazgan harakat (harakatsizlik) belgilangan.» [4] Qayd etish kerakki, ushbu qonunda tahqirlashning aynan kibermakonda amalga oshirilishi alohida belgilab qo'yilmagan.

Xarassmentning yana bir ko'rinishi «trolling» hisoblanadi. Trolling asosan manipulyativ xarakterga ega bo'lib, trollingni amalga oshiruvchi trollerlar o'ljasi haqida ijtimoiy tarmoqlarda, veb-saytlarda, forumlarda va guruhlarda haqorat ommalarning ma'lumotlari tarqatish, nafsoniyatiga tegadigan, millatini kamsitadigan, diskriminatsiya qiladigan harakatlarni amalga oshiradilar. Asosan trollerlarning xatti-harakatlari ig'vo ko'rinishida bo'lib, jamiyatda insonlar orasida nizolarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ta'kidlab o'tish joizki, ba'zi olimlarning fikricha, «trolling» alohida hodisa sifatida ko'rib chiqiladi, chunki so'nggi yillarda «trolling» hodisasi siyosiy tus olmoqda. Qayd etib o'tish kerakki trolling sanoat darajasiga ko'tarilib, ma'lum bir miqdordagi pul evaziga yuzlab shaxslar ma'lum bir g'ayriijtimoiy g'oyalarni targ'ib qilishi, taniqli shaxslarni haqorat qilishi holatlari kuzatilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra: ««Trollar fabrikasi» Rossiya, Meksika, Filippin, Ukraina, Belarusiya, Malayziya, Marokash, Myanma, Qozog'iston, Ozarbayjon, Xitoy, Bahrayn, Eron va bir qator boshqa davlatlarda borligi aniqlangan. Hisobotda qayd etilishicha, Rossiya kabi davlatlar pul to'lanuvchi sharhlovchilardan xorijiy davlatlardagi saylov jarayoniga aralashish maqsadida foydalanadi, lekin «trollar fabrikasi» aksariyat hollarda ichki vazifalar uchun qo'llaniladi» [5].

Kiberbullingni manipulyativ va bevosita agressiya ko'rinishiga ega bo'lgan turi «kiberstalking» (ta'qib qilish) bo'lib, bunday ko'rinishdagi kiberbulling turi, doimiy ravishda takrorlanuvchi xabar va ma'lumotlarni o'z o'ljasi yuborib, unda qo'rquv, xavotir va bezovtalik yuzaga keltirishi mumkin. Kiberstalkingning o'ljasi individ yoki uning oila-a'zolari bo'lishi mumkin. Kiberstalkingni amalga oshiruvchi agressor asosan o'ljalarini doimiy ravishda kuzatish natijasida ularni manipulyatsiya qilishga harakat qiladi. Kiberstalkingning «seksting» deb ataluvchi shakli ham mavjud bo'lib, u xam o'z o'rnida individda qo'rquv, xavotir va bezovtalanishning paydo bo'lishiga olib keladi. «Seksting»ni amalga oshiruvchi agressor uyatsiz, yarim yalang'och va boshqa ko'rinishdagi hamda hech qanday axloq normalariga to'g'ri kelmaydigan video, rasm va matn ko'rinishidagi ma'lumotlarni o'zi tayyorlab, ushbu materiallarni ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va boshqa elektron kommunikatsiya vositalari orqali tarqatadi. Bunday ko'rinishdagi agressiya asosan xotin-qizlarga nisbatan qaratilgan bo'lib, ular orasida o'z joniga qasd qilish holatlariga ham olib keladi. Kiberstalkingning eng asosiy xususiyati uning qurbonlarini jismoniy jihatdan ajratib olish qiyin [6].

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tashabbusi bilan Kiberstalking uchun ma'muriy javobgarlik belgilandi. «Gap otganlik bo'yicha javobgarlikni dispozitsiya dedik. Bu borada aniq xatti-harakat va qaysi holatda javobgarlik keltirib chiqarishiga ehtiyot bo'lish kerak. Chunki, u yerda tuhmat ham bo'lib ketishi mumkin. Shuning uchun dispozitsiyasini, ya'ni javobgarlikni biz endi ishlab chiqdik. Vazirlik ishchi guruhi ishlab chiqdi. Endi vazirliklarga beramiz. Shuning uchun bu masalani aniq qilib, albatta, jamoatchilikning muhokamasiga beramiz. Lekin bu bizga, albatta, kerak. Chunki, bu jamiyatimizda xavf ega bo'lgan xatti-harakatdir. Bunga davlat sifatida javob qilishimiz kerak», deydi Adliya vaziri [7].

Kiberstalkingning yana bir ko'rinishi bu yolg'on xabar tarqatish (ing. denigration), ya'ni, individ haqida yolg'on xabar tarqatish, uni ig'vo va g'iybat qilish orqali uning jamiyatdagi obro'siga va o'rniga putur yetkazishdir. Bunday ko'rinishdagi kiberstalkingning ko'rinishi maktab o'quvchilari orasida ham ko'p kuzatiladi. Maktab o'quvchilari o'rtasidagi bunday ko'rinishdagi ig'vo va g'iybat shakli «onlayn slem-buks» (ing. online slam-books) deb ataladi. «Onlayn slem-buks» asosan maktab bolalari o'rtasida turli-xil tabaqalanishni keltirib chiqaradi, masalan «maktabdagi eng chiroyli qiz», yoki aksincha «maktabdagi eng xunuk qiz», «maktabda eng yomon kiyinadigan bola» va boshqalar.

Yolg'on ma'lumotlarni tarqatish o'zini boshqa shaxs qilib ko'rsatishda (ing. impersonation) ham ifodalanadi. Bunda agressor o'z o'ljasi ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntining parolini o'g'irlab olishga erishadi yoki akkauntini buzib kirishga muvaffaq bo'ladi hamda o'ljasi rasmlarini qo'yib, yangi akkaunt ochadi va o'ljasi nomidan uning yaqinlariga yolg'on ma'lumotlarni yuboradi. Bundan tashqari, agressor o'ljasi nomidan uning ijtimoiy tarmoqdagi akkauntidan foydalangan holda noo'rin, haqoratnomus va kamsitish ko'rinishdagi ma'lumotlarni Internetga joylashtirish orqali boshqa insonlar oldida uning obro'sini tushiradi va unga nisbatan nafrat uyg'otadi. Bunday ko'rinishdagi agressiyaning o'ljasi bo'lgan individ o'zida qo'rquv va xavotir sezadi hamda yaqinlari orasidagi ijtimoiy aloqaning buzilishiga olib keladi.

Kiberbullingning firibgarlik va shaxsiy ma'lumotlarni ommaga yoyish (ing. trickery) va jamiyatdan chiqarib yuborish (ostrakizm, ing. exclusion G'ostracism) hamda bir guruh agressorlar tomonidan individga jismoniy kuch ishlatish orqali zo'rvonlik o'tkazib, kamsitish, ya'ni «xeppi-slepping» (ing. happy slapping) deb ataluvchi turlari ham mavjud.

Firibgarlik, ya'ni «trickery» deb ataluvchi kiberbulling turi agressor tomonidan o'ljasi tegishli bo'lgan maxfiy, shaxsiy va konfidensial ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni ommaga ijtimoiy tarmoqlar va boshqa elektron vositalar orqali fosh etishdir. Ichki ishlar vazirligiga ko'ra «...dunyo bo'ylab har yili 500 milliondan ortiq kiber hujumlar uyushtiriladi. Har soniyada 12 nafar insondan biri kiber makonda sodir etilgan hujumlar qurboniga aylanadi. Amerika Qo'shma Shtatlari, Fransiya, Angliya, Germaniya, Belgiya, Lyuksemburg kabi rivojlangan davlatlarda jinoyatlarning 60-65 foizi kiber hujumlar orqali sodir etilmoqda. O'zbekistonda ham so'nggi uch yilda bu turdagi jinoyatlar 8,3 baravarga ko'payib, hozirda umumiy jinoyatchilikning qariyb 5 foiziga yetgan. Xususan, noqonuniy bank-moliya operatsiyalari orqali o'zgalarning plastik kartadagi mablag'larini o'zlashtirish, zararli viruslar tarqatish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan onlayn o'yinlar, diniy aqidaparastlikka qaratilgan axborot xurujlari, onlayn savdo maydonidagi firibgarlik jinoyatlari ko'payib bormoqda» [8].

Tahlil va natijalar. Jamiyatdan chiqarib yuborish va ostrakizm «exclusion G'ostracism» esa, individ yoki bir guruh shaxslar tomonidan biron bir shaxsni virtual jamiyatdan chiqarib yuborish orqali haqiqiy hayotdagi jamiyatdan ajratib

qo'yish maqsadida amalga oshiriladi. Bu tushuncha dastlab Grayesiyada qo'llangan bo'lib, jamiyat a'zolaridan biri yashirin ovoz berish yo'li bilan shahardan yoki jamoadan badarg'a qilingan.[9] Bugungi kunda asosiy ijtimoiy munosabatlar shakli sifatida virtual aloqalar yetakchi o'ringa chiqqan bir sharoitda bunda hodisalar shaxsning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga onlayn platformalar ham ba'zan o'z foydalanuvchilarini badarg'a qilib turadi. Misol uchun, tgram ijtimoiy tarmog'ida foydalanuvchi xabarlariga nisbatan spam yuborilgan bo'lsa, uni ijtimoiy tarmoqdan ma'lum bir muddatga cheklshi mumkin. Yoki AQSh prezidenti Donald Tramp ijtimoiy tarmoqlardan badarg'a qilinganligi qayd etib o'tish mumkin.[10]

Shu o'rinda maktab o'quvchilari orasida hozirgi vaqtda ommalashib borayotgan kiberbullingning yana bir turi - "xeppi-slepp" haqida to'xtalib o'tish mumkin. Yuqorida aytib o'tilganidek, maktab o'quvchilarining ko'pchiligi 4-sinf dan boshlab turli mobil telefonlardan foydalanmoqda va ushbu mobil qurilmalarning deyarli hammasida kameralar mavjud. Ushbu kameralardan maktab o'quvchilari yomon niyatlarda, bironi uyaltirish, nafsoniyatiga tegish uchun foydalanmoqdalar. Masalan, bir to'ra maktab o'quvchilari bir kuchsiz sinfdoshiga nisbatan jismoniy kuch ishlatgan holda uni mazah qilib, shikast yetkazadilar va ushbu jarayonni telefondagi kameraga tasvirga olib, boshqalarga tarqatib yuboradilar. Natijada esa ushbu holatdan jabr ko'rgan o'quvchi boshqalarning kulgusiga qoladi va turli psixologik stresslarni boshidan kechiradi. Bu esa uning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va natijada kelajakda turli salbiy oqibatlar olib keladi. Ushbu holatlar nafaqat o'g'il bolalar orasida yoki faqat o'g'il bolalarga nisbatan qo'llanilmoqda, balki qizlar orasida ham keng tarqalmoqda. Xususan maktab psixologlaridan olingan intervyularga ko'ra, qiz bolalar ko'proq agressiyaning qurboni bo'ladi. Chunki qiz bolalar o'g'il bolalarga nisbatan ta'sirchan, ishonuvchan bo'ladi va ularni qo'rqitish oson. Bundan tashqari, qiz bolalar o'g'il bolalarga o'xshab ota-onalariga hamma muammolarini aytayvermaydilar, hissiyotlarga beriluvchan bo'ladi va o'z sirlarini har doim ham katta yoshdagilarga ocha olmaydilar. Shuning uchun ham ular kiberbulling qurboni bo'ladi va ularda ushbu vaziyatdan chiqib ketish qiyinroq kechadi. Masalan, bunday holatlarga misol qilib aytadigan bo'lsak, maktabda biron-bir o'g'il bolada o'z sinfdoshini yoki boshqa guruhda o'qiydigan o'quvchi qizga nisbatan xayrixohlik (simpatiya) paydo bo'ladi (oddiy so'z bilan aytganda, "sevim qolganda") va u ushbu qizga qandaydir yo'l orqali yaqinroq bo'lib suhbatlashishga harakat qiladi. Ko'p hollarda qiz bola unga xayrixohlik qilayotgan o'g'il bolaning his-tuyg'ularini rad etadi (bu holatlar maktab o'quvchilari orasida odatiy holat deb ko'riladi). Natijada o'g'il bola alamini ichiga yuta olmaydi va unda ushbu qiz bolaga nisbatan agressiv kayfiyat paydo bo'ladi va agressiya uyushtiriladi. Bunday vaziyatga tushgan o'g'il bolalar ko'pincha agressiyaning axborot texnologiyalari orqali amalga oshirishga harakat qiladilar, chunki haqiqiy hayotda uni amalga oshirish imkoni bo'lmaydi (odamlar va tarafdorlar ko'p bo'lishi sababli). Ko'pincha bunday holatlarning oxiri salbiy oqibatlar bilan yakunlanadi.

Huquq-tartibot organlari, maktab o'quvchilari va psixologlaridan olingan ekspert intervyulardan tashqari ushbu ilmiy ish doirasida O'zbekiston Respublikasining kibermakonida kiberbulling hodisasi bilan bog'liq hodisalar mustaqil tarzda kuzatib borilgan va tahlil qilingan.

Xulosa va takliflar. Kuzatishlar natijasida ushbu holatlar mamlakatimiz fuqarolari, hukumatga va siyosiy elitaga nisbatan ham onlayn-agressiya ko'rinishida amalga

oshirilganligi ma'lum bo'lgan. Ushbu onlayn-agressiyaning mamlakatimizdagi odatiy fuqarodan boshlab, jurnalist va bloggerlarga amalga oshiradilar. Ammo shuni ta'kidlab o'tish joizki, xorijiy guruhlar tomonidan olib borilgan shu kabi ishlar o'rganilganda, guruhlarining a'zolari bunday texnologiyalarni qo'llashni o'rganib, keyinchalik o'zlari yakka holda boshqa bir insonlarga nisbatan kiberbullingni qo'llaganliklari aniqlangan. Bizda bunday holat takrorlanmasligiga hech kim kafolat bermaydi. Natijada esa, ushbu guruhlarini tashkil etayotgan shaxslar, o'zlari bilmagan holda, onlayn-agressorni tarbiyalab qo'yishmoqda.

Kiberbullingning jismoniy kuch ishlatib, shaxsni kamsitadigan yagona shakli bu "xeppi-slepp" (ing. happy slapping) bo'ladi. Bunda bir guruh shaxslar biron bir shaxsga to'satdan jamoat joylarida tashlanib, unga nisbatan kuch ishlatib, do'pposlab, ushbu jarayonni kameraga oladilar va

Internetga joylashtirish orqali ommaga taqdim etadilar. Buning natijasida jabrlanuvchida o'ziga bo'lgan ishonch yo'qolib, jamiyatdan ajralib qolish oqibatlariga olib keladi. Bu ayniqsa tanqli shaxslar, olimlar, mashhur san'atkorlarga yoki jinoiy guruh tomonidan tanlangan shaxslarga internetda til biriktirib olib, so'ngra amalga oshirish mumkin[11].

Yuqorida keltirib o'tilgan kiberbulling turlaridan kelib chiqqan holda, uning onlayn-agressor tomonidan insonlarga qaratilgan xatti-harakatlarining belgilari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ataylab yoki o'zi anglamagan holda haqorat qilish, kamsitish, nafsoniyatga tegish va shunga o'xshash xatti-harakatlar;
- bildirgan fikrga nisbatan haqoratimiz qarashlarni targ'ib qilish;
- ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirgan ma'lumotlar (rasm, video va hokazolar)ga nisbatan haqoratimiz so'zlarni ishlatish;
- turli sabablarni bahona qilgan holda, ijtimoiy virtual guruhlardan ataylab chiqarib yuborish orqali ajratib qo'yish;
- onlayn ravishda doimiy ta'qib qilish, ya'ni, doimiy ravishda Internetda insonni kuzatib, uning tinchligini buzish;
- boshqa inson nomidan, uning shaxsiy ma'lumotlaridan foydalangan holda, xatti-harakatlarni amalga oshirish;
- boshqa bir insonning rasmlaridan foydalanib, ijtimoiy tarmoqlarda soxta akkauntlar ochish;
- boshqa bir insonning rasmlarini qayta ishlab, rasmini axloqsiz ko'rinishga keltirib, Internetda tarqatib yuborish;
- yolg'on va soxta ma'lumotlar tarqatish;
- insonni nojo'ya xatti-harakat qilishiga sharoitlar yaratib yoki majburlab, ushbu xatti-harakatlarni video yoki rasimga olib, Internetda tarqatish;
- zo'ravonlik va tahdid ko'rinishdagi ma'lumotlarni yuborish;
- ovoz berish orqali insonni kamsitish yoki ajratib qo'yish;
- biron bir insonga tegishli bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarni uning roziligsiz tarqatish.

Umumiy qilib olganda, mamlakatimizda kiberbulling holatlari yildan-yilga ko'payib borayotgani hamda ushbu hodisani ba'zi bir kimsalar texnologiya sifatida qo'llab, o'zlarining quroliga aylantirib olganining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Kiberbulling turli ko'rinishlari yoshlarning bilim darajasi va tarbiyasidan kelib chiqib turlicha namoyon bo'ladi. Bu esa kiberbullingni yaxlit bir ijtimoiy hodisa emas, balki tizimlashtirib, o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

ADABIYOTLAR

1. Бочавер А.А., Хломов К.Д. Кибербуллинг: травля в пространстве современных технологий. Психология. Журнал Высшей школы экономики. 2014. Т. 11. №3. С. 177-191.
2. Baron, Reuben M.; Kenny, David A. The moderator–mediator variable distinction in social psychological research: Conceptual, strategic, and statistical considerations. <https://psycnet.apa.org/record/2012-04615-000>.
3. С. Мирзиёева. «Бу каби ҳолатлар денгиздан томчи». — университетда талаба кизга тегажоглик қилингани ҳақида. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/10/27/saida-mirziyoyeva/> -
4. Ўзбекистон Республикасининг 2019-йил 2-сентябрдаги “Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида” ги қонунни. <https://lex.uz/docs/4494709> -.
5. М. Ҳакимжонов. Троллар фабрикаси. <https://oliymahad.uz/8878>
6. Людкевич Юрий Николаевич, Гришай Елена Васильевна, Люев Тимбот Хабасович. "Деструктивное поведение в онлайн-общения: проблемы и пути решения" Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки, no. 8, 2021, pp. 47-52.
7. Р.Давлетов. Бу ижтимоий хавфга эга. <https://qalampir.uz/news/-2014-55081>.
8. IIV Matbuot xizmati. Kibermakonda sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashish muammolar va yechimlar. <https://iiv.uz/oz/news/kiber-makonda-sodir-etilayotgan-jinoyatlarga-qarshi-kurashish-muammolar-va-yechimlar>.
9. Евремова Т.Ф. Новый словарь русского языка. Толького-словообразовательный. Москва, 2000. –С. 350.
10. Interfaks Ukraina. <https://interfax.com.ua/news/political/714709.html>.
11. Elena I. Galyashina , and Vladimir D. Nikishin. "The Concepts of Aggressive Information Impact through the Lens of Internet Users' Worldview Security" Журнал Сибирского федерального университета. Гуманитарные науки, vol. 14, no. 11, 2021, pp. 1660-1673. doi:10.17516/1997-1370-0848.